# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№6

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUN



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · OpenAIRE · ROAD · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · BASE · Crossref · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU




РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ · TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI · ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI · TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI · TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI · TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI · JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

*Elektron nashr,*
*466 sahifa, iyun, 2025-yil.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan ........ 12
**Isakov Janabay Yakypbayevich**

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash ........ 18
**Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B**

Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market ........ 23
**Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova**

O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari ........ 29
**D.E.Qarshiev**

Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston ........ 35
**Islomova Dilrabo Salomovna**

Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli ........ 40
**Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich**

Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития ........ 47
**Алиев Аброр Мураткулович**

The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration ........ 52
**Dilorom Mutalova**

Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli ........ 57
**Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li**

Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar ........ 62
**Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li**

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida ........ 66
**Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich**

The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing ........ 73
**Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna**

Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties ........ 80
**Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ........ 85
**Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li**

Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish...... ........ 89
**Fazilat Egamberganova Shuhratovna**

Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ........ 93
**Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li**

Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari ........ 98
**Yembergenova Aynur Aydosbaevna**

Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari ...... 104
**Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich**

Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi ........ 110
**Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ............. 115
**Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li**

Soliq toʻlovchilarning majburiyatlari bajarilishini taʼminlashning gnoseologik asoslari xususida .................. 118
**Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich**

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari ............................... 125
**Yaqubova Nodira Olim qizi**

Oʻzbekistonda toʻqimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari .................................... 130
**Nosirova Charos**

Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining oʻrni ............. 135
**Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li**

Axoli daromadlarining turmush farovonligiga taʼsiri ........................................................................ 142
**Berdibekov A.**

Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari ............ 148
**Axmedova Barno Abdiyevna**

Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning oʻziga xosligi va unda strategik menejment tizimi ........................................................................................................................ 151
**Yaqubov Azizbek Gʻanibekovich**

Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari ................................................................ 156
**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**

Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yoʻllari ................................................ 163
**Oʻtamurodova Surayyo SHokirjon qizi**

Temir yoʻl transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi .................................................................. 169
**Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich**

Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining koʻrsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari .... 174
**S.J. Yangiboev**

Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari .......................... 181
**Sharipov Narzullo Gʻulomovich**

Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish ....................................... 188
**Bakayev Xurshid Maxmudovich**

Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.................................................. 195
**Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович**

Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ... 209
**Meliqulov Abduhalil Norinovich**

Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar ........................................................ 215
**Joʻrayev Oʻktam Panji oʻgʻli**

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.................................................. 219
**Xodjayev Jamshid Abduxakimovich**

Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining oʻrni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ........................................................................................................................ 223
**Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi**

Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi oʻrni ................................................................ 230
**Qoʻziyev Shodiyor Qilichboy oʻgʻli**

Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida ............................................................. 234
**Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna**

Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning oʻziga xos jihatlari ...................................... 239
**Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni ........ 244
**Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich**

Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach ........ 251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova

Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity ........ 258
**Shamshinur Yakubova**

Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari ........ 263
**Ayubov Ilyos Ilxomovich**

Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish ........ 268
**Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li**

O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili ........ 274
**Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich**

Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o 'rni va ahamiyati ........ 282
**Sohibova A'loxon Zafarjon qizi**

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari .. 286
**Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna**

Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari ........ 292
**Kodirkulov Oybek Turdiboyevich**

Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish ........ 301
**Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich**

Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati ........ 306
**Qon'irbayev Dastan**

Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане ........ 311
**Салимов Шерзод Бахтиёрович**

Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis ........ 316
**Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf**

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish ........ 326
**Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li**

Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim ........ 331
**Ayubov Ilyos Ilxomovich**

Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari ........ 335
**Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich**

Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies ........ 342
**G'aforova Zarina Otabek qizi**

Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida) ........ 348
**Xazratov Abror Panjiyevich**

Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili ........ 352
**Abriev Zoirjon**

The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan ........ 358
**To'xtarova Feruzahon Yuldashevna**

Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi ........ 362
**Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich**

Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления ...................................... 366
**Машарипова Шахло Адамбаевна**

Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish ...................................................... 372
**Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich**

Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия ...................................... 376
**Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna**

Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea ...................................... 383
**Umidjan R. Nazarkulov**

O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari ..................... 388
**Jalolova Madina Shopo'lat qizi**

Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida) ................................................................................................ 393
**Xudoyorova Mehrangiz**

Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы .. 400
**Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович**

Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi ................................................................................................ 408
**Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li**

Konsalidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish .................................................... 414
**Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'lchiyev Oybek Ulug'bek o'g'li**

Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati ................................................ 419
**G'oziyeva Aziza Abdusalomovna**

Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar...................................... 427
**Mirzaxmedova A. A.**

Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .............................. 432
**Mirzaxmedova A. A.**

O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar ................................................................................................ 437
**Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi**

Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari.......................................................... 4 4 2
**Xojiyev Jaxongir Dushabayevich**

Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari ............................................................ 447
**Norqobilov Nusratilla Norsaitovich**

Progression of Small Business and Entrepreneurial Activity in Uzbekistan ............................................... 450
**Dauletbaeva Ulzada Bakhadirovna**

Raqamli moda dizayni va ishlab chiqarish usuli uchun clo3D ma'lumotlar bazasi ...................................... 454
**Temirova Gulnoz Ibodovna, Esanova Ma'rifat G'ayratovna**

Xususiy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishning amaliy jihatlari ...................................... 459
**Karimov Ulug'bek Usmonovich**

# XUSUSIY TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIY JIHATLARI

**Karimov Ulug'bek Usmonovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**ORCID: 0000-0002-9431-6166**

Annotatsiya: Maqolada xususiy oliy talim muassasalari menejmentining amaliy jihatlari tadqiq etilib, muallif tomonidan uhududlarda xususiy mumta'lim muassasalari soni, ulardagi o'quvchilar va o'qituvchilar kontingenti organilgan, Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan eng yirik xususiy maktablar o`rganilib, xususiy maktablarning SWOT-tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: xususiy ta`lim, menejment, malaka, ta'lim muassasasi, xususiy maktablar, o'quvchilar soni.

Abstract: This article explores the practical aspects of managing private educational institutions. The author analyzes the number of private institutions across various regions, the student and teacher enrollment, and examines the largest private schools operating in Namangan region. A SWOT analysis of private schools is also conducted.

Keywords: private education, management, qualification, educational institution, private schools, number of students.

Аннотация: В статье рассматриваются практические аспекты управления частными высшими учебными заведениями. Автор изучает количество частных учебных заведений в регионах, контингент учащихся и преподавателей, а также крупнейшие частные школы, действующие в Наманганской области. Проведен SWOT-анализ частных школ.

Ключевые слова: частное образование, управление, квалификация, учебное заведение, частные школы, количество студентов.

## KIRISH

Jahon amaliyotida xususiy ta'lim xizmatlari bozorining yetakchi ishtirokchilari hisoblangan umumta'lim muassasalari mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishda muhim rol o'ynamoqda. Ularni samarali boshqarish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning ilmiy yechimlarini ta'minlash maqsadida maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etilgan. Jumladan, xususiy umumta'lim muassasalarining reytingi va raqobatbardoshligini oshirish, maktablar brendini shakllantirish va brend kapitalini boshqarishda tizimli yondashuvlarni qo'llash, ta'lim sifatini oshirish, jarayonlarni optimal boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish hamda sog'lom raqobatni joriy etishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish kabi masalalar alohida o'rganilmoqda.

Global ta'lim bozorida xususiy ta'lim muassasalarining roli tobora ortib bormoqda. Raqobatbardoshlik, sifatli kadrlar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy mustaqillik kabi omillar bugungi kundagi asosiy ustuvor yo'nalishlar sirasiga kiradi. AQSh, Janubiy Koreya, Singapur va Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy sektor ta'lim tizimidagi innovatsiyalar lokomotiviga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham xususiy ta'lim muassasalari soni va ularga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli ularni samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, strategik rejalashtirish, raqamlashtirish, investitsiyalarni jalb etish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xususiy maktablarni rivojlantirishning nazariy jihatlari va zamonaviy tendensiyalari xorijiy olimlar — A. Aaker, Keller K., Gad T., George S., Ronald A., Waqas M., Brzaković A., Thanh kabi tadqiqotchilar tomonidan

chuqur oʻrganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) davlatlarida xususiy umumtaʼlim muassasalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha Xmelkova N.V., Mitrofanova T.Yu., Vanyushkina V.V. va Simonov V.B. kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Oʻzbekistonda taʼlim tizimidagi menejment masalalari quyidagi olimlar tomonidan oʻrganilgan: Adizov B.R., Askarov A., Axunova G.N., Begalov B.A., Bekmurodov A.Sh., Gʻoziyev K., Gʻulomov S.S., Zaynutdinov Sh.N., Ikramov M.A., Yoʻldoshev N.K., Nabiyev D.X., Norkulov C.T., Raximova D.N., Raxmanbayeva R.A., Saidov M.X., Sodiqov N., Xakimova M., Xashimova D., Ergashxoʻjayeva Sh.D., Qurolov Q.Q., Eshmatov S.A. va boshqalar.

Shunga qaramay, Oʻzbekiston Respublikasida xususiy umumtaʼlim muassasalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir nazariy va amaliy jihatlar hali toʻliq yoritilmagan. Shu sababli, mazkur yoʻnalishda bir qator ilmiy, uslubiy va amaliy muammolarning hal etilishi zaruratga aylangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xususiy taʼlim muassasalarining boshqaruv samaradorligini baholash maqsadida SWOT tahlil usulidan foydalanildi. Namangan viloyatidagi yirik xususiy maktablar kesimida olingan statistik maʼlumotlar asosida kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlandi. Har bir omil mutaxassislar bahosiga asoslanib 1 dan 5 gacha ball bilan baholandi va tegishli vazn koeffitsienti bilan koʻpaytirilib, vaznli ballar hisoblandi. Tahlil natijalari boshqaruvni takomillashtirish va strategik rejalashtirishga xizmat qiluvchi muhim xulosalarni shakllantirishga imkon berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar kesimida oʻrganilgan tahlil natijalariga koʻra, oʻquvchilar zichligi eng yuqori boʻlgan tumanlar quyidagilardir: Yangi Namangan tumani — 1,6 koeffitsient, Davlatobod tumani — 1,5 va Namangan shahri — 1,5. Bu esa ushbu hududlarda oʻquvchilar soni mavjud taʼlim oʻrinlaridan 50–60 % ga koʻpligini anglatadi. Natijada sinflarda oʻquvchilar sonining meʼyordan ortib ketishi, oʻqituvchilarga tushadigan yuklamaning oshishi va taʼlim sifati pasayishi xavfi mavjud.

Pop tumani esa butun viloyat miqyosida yagona hudud sifatida ajralib turadi, bu yerda oʻquvchilar soni (40 380) mavjud oʻrinlardan (42 590) kam. Natijada koeffitsient 0,9 ni tashkil etadi. Bu holatda taʼlim muassasalarida joy yetishmasligi emas, balki mavjud resurslardan toʻliq foydalanilmayotganlik kuzatilmoqda. Ushbu holat hududdagi demografik oʻzgarishlar, migratsiya tendensiyalari yoki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan izohlanishi mumkin.

Aholi zichligi yuqori boʻlgan Namangan shahri va unga yaqin Davlatobod hamda Yangi Namangan tumanlarida oʻquvchilar sonining ortib borayotgani taʼlim tizimining barqaror rivojlanishini taʼminlash uchun qoʻshimcha infratuzilma va resurslarga ehtiyoj borligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, Yangiqoʻrgʻon, Chortoq, Chust, Mingbuloq kabi tumanlarda koeffitsient 1,2 atrofida boʻlib, oʻrtacha yuklama darajasining mavjudligidan dalolat beradi. Bu hududlarda taʼlim muassasalari nisbatan muvozanatli faoliyat yuritayotgan deb baholash mumkin.

Mamlakatimiz boʻyicha xususiy taʼlim muassasalari soni eng yuqori boʻlgan hududlar quyidagilar: Toshkent shahri — 31 ta, Fargʻona viloyati — 23 ta, Andijon viloyati — 16 ta, Buxoro viloyati — 14 ta, Samarqand viloyati — 13 ta va Namangan viloyati — 12 ta. Soʻnggi ikki yilda xususiy maktablar soni oshib borayotgan dinamikaga ega. Bu, bir tomondan, ota-onalarning farzandlari taʼlimiga investitsiya kiritish imkoniyatlari kengayayotganini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, ularning baʼzilari oddiy davlat taʼlim muassasalaridan (ixtisoslashtirilgan maktablar bundan mustasno) toʻliq qoniqmayotganligini bildiradi. (1-jadval)

1-jadval:Hududlarda xususiy mumtaʼlim muassasalari soni, ulardagi oʻquvchilar va oʻqituvchilar kontingenti

| | Xususiy muassasalar soni | Xususiy muassasalarda oʻquvchilar soni | Xususiy muassasalarda oʻqituvchilar soni | Xususiy muassasalarda 9-sinfni bitirgan oʻquvchilar soni, kishi | Xususiy muassasalarda 11-sinfni bitirgan oʻquvchilar soni, kishi |
|---|---|---|---|---|---|
| Oʻzbekiston Respublikasi | **135** | **30553** | **3578** | **1074** | 694 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2 | 176 | 27 | - | - |
| viloyatlar: | | | | | |
| Andijon | 16 | 2532 | 309 | 33 | - |
| Buxoro | 14 | 1897 | 268 | 60 | 58 |
| Jizzax | 5 | 1083 | 133 | 40 | 61 |
| Qashqadaryo | 2 | 670 | 60 | 26 | - |
| Navoiy | 1 | 184 | 34 | - | - |
| Namangan | 12 | 1320 | 109 | 15 | - |
| Samarqand | 13 | 1951 | 253 | 7 | 10 |
| Surxondaryo | 2 | 409 | 41 | - | - |
| Sirdaryo | 1 | 359 | 44 | - | - |
| Toshkent | 3 | 845 | 62 | 67 | - |
| Farg'ona | 23 | 4982 | 486 | 295 | 240 |
| Xorazm | 10 | 1088 | 142 | 88 | 147 |
| Toshkent sh. | 31 | 13057 | 1610 | 443 | 178 |

Xususiy ta'lim muassasalarida o'quvchilar soni ham mutanosib ravishda Toshkent shahri, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Samarqand va Namangan viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ushbu hududlardagi xususiy muassasalarda o'qituvchilar soniga nisbatan o'quvchilar soni quyidagi tarzda taqsimlangan:

- Namangan — har bir o'qituvchiga 8,3 nafar o'quvchi,
- Farg'ona — 9,7 nafar o'quvchi,
- Andijon — 12,2 nafar o'quvchi,
- Toshkent shahri — 12,3 nafar o'quvchi,
- Samarqand — 12,9 nafar o'quvchi,
- Buxoro — 14,1 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda.

Ushbu raqamlar shuni anglatadiki, ayniqsa Namangan va Farg'ona viloyatlarida mashg'ulotlar kichik guruhlarda olib boriladi. Bu esa o'quvchilarga individual yondashuv taqdim etish imkonini beradi. Ya'ni, bu viloyatlardagi xususiy maktablarda har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni kamroq bo'lib, ta'lim sifati va yondashuvning shaxsiylashtirilganligini ta'minlash imkoniyatini oshiradi.

2023-yil davomida o'tkazilgan tadqiqot doirasida jami 6 891 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, ulardan 21,7 % yoki 1 500 nafar o'quvchi xususiy maktabdagi ta'lim sifatidan "qoniqmayman" degan javobni bergan. Bu esa sohada muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatadi va xususiy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini bildiradi.

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan eng yirik xususiy maktablar soni va ularning o'quvchilar bilan to'ldirilganligi bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu maktablar viloyat umumta'lim tizimining ajralmas va muhim qismini tashkil etmoqda. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 1–11-sinflar kesimida 200 nafardan ortiq o'quvchiga ega bo'lgan 14 ta yirik xususiy maktab aniqlangan bo'lib, ular viloyatning turli tuman va shaharlarida faoliyat olib bormoqda. Bu holat xususiy ta'lim muassasalarining hududiy ko'lamda kengayib borayotganini va aholining ularga bo'lgan talabining ortib borayotganini ko'rsatadi.(2-jadval)

2-jadval:Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan eng yirik xususiy maktablar

| Tuman | Tashkilot | 1-11 sinf o'quvchilar soni |
|---|---|---|
| | | Jami o'quvchilar |
| Chortoq | «CHORSAYYOH YUKSALISH» MChJ | 739 |
| Davlatobod | «ISTIQBOL ZAMON BOLALARI» NTM | 543 |
| Yangi Namangan | OOO «IQRO IT-MED SCHOOL» | 446 |
| Namangan shahar | NAMANGAN RISING SCHOOL (Namangan yuksalish maktabi) | 435 |
| Kosonsoy | «NIS PRO KOSONSOY» MCHJ | 416 |

| | | |
|---|---|---|
| Namangan shahar | «ZIYOKOR INTERNATIONAL SCHOOL» MCHJ | 395 |
| Namangan shahar | «NOVDA MILLIY MAKTABI» MCHJ | 317 |
| Namangan | «AL-KHORAZMIY INTERNATIONAL SPECIAL SCHOOL FOR GIFTED CHILDREN» NTM | 308 |
| Yangiqo‘rg‘on | «POWER PROGRESS-Y» MCHJ | 303 |
| Kosonsoy | «ABU RAYHON BERUNIY IZDOSHLARI XUSUSIY MAKTABI» MCHJ | 294 |
| Namangan shahar | «LSL SCHOOL» xususiy korxonasi | 231 |
| Namangan shahar | BABY PLAZA | 226 |
| Chust | НОУ «WONDERKIDS` SCHOOL» | 194 |
| Chust | «BOBORAXIM MAKTABI» MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATMCHJ | 194 |

Eng ko‘p o‘quvchiga ega bo‘lgan xususiy maktab — Chortoq tumanida joylashgan “Chorsayyoh Yuksalish” MChJ bo‘lib, ushbu muassasada 739 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. Bu maktab xususiy ta’lim sohasida yetakchi mavqega ega ekani bilan ajralib turadi.

Ikkinchi o‘rinda Davlatobod tumanidagi “Istiqbol Zamon Bolalari” nodavlat ta’lim muassasasi (543 nafar o‘quvchi), uchinchi o‘rinda esa Yangi Namangan tumanida joylashgan “IQRO IT-MED SCHOOL” (446 nafar o‘quvchi) joylashgan.

Namangan shahrida faoliyat yuritayotgan bir nechta yirik xususiy maktablar — “Namangan Rising School” (435 nafar o‘quvchi), “Ziyokor International School” (395), “Novda Milliy Maktabi” (317), “LSL School” (231) hamda “Baby Plaza” (226) — shaharning ta’lim infratuzilmasining rivojlanib borayotganini yaqqol ifodalaydi.

Shuningdek, Kosonsoy tumanida ikki nufuzli xususiy maktab — “NIS PRO Kosonsoy” (416) va “Abu Rayhon Beruniy Izdoshlari” (294) — faoliyat yuritmoqda. Bu ta’lim muassasalari yuqori malakali o‘qituvchilari, ixtisoslashgan yondashuvlari va zamonaviy o‘quv muhitlari bilan ajralib turadi. Diqqatga sazovor jihatlardan biri shuki, Namangan tumanida faoliyat olib borayotgan “Al-Khorazmiy International Special School for Gifted Children” nomli maktabda 308 nafar iqtidorli o‘quvchi tahsil olmoqda, bu esa uning intellektual salohiyatga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Yangiqo‘rg‘on tumanidagi “Power Progress-Y” MChJ (303 nafar o‘quvchi) hamda Chust tumanidagi ikki muassasa — “Wonderkids’ School” va “Boboraxim Maktabi” (har ikkalasida 194 nafar o‘quvchi) — mintaqaviy kesimda xususiy ta’limning bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko‘rsatadi. (3-jadval)

3-jadval:Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan xususiy maktablarning SWOT-tahlili

| SWOT | Omil | Vazn | Ball | Vaznli Ball | SWOT | Omil | Vazn | Ball | Vaznli Ball |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| S – Kuchli tomonlar | Raqobatbardosh xizmatlar | 0.25 | 4 | 1.00 | W – Zaif tomonlar | Moliyaviy cheklovlar | 0.30 | 2 | 0.60 |
| | Moslashuvchanlik | 0.25 | 4 | 1.00 | | Kadrlar yetishmasligi | 0.30 | 2 | 0.60 |
| | Innovatsion yondashuv | 0.25 | 3 | 0.75 | | Byurokratik to‘siqlar | 0.20 | 3 | 0.60 |
| | Xalqaro hamkorlik imkoniyati | 0.25 | 3 | 0.75 | | Brendning zaifligi | 0.20 | 2 | 0.40 |
| Jami S | | 1.00 | | 3.50 | Jami W | | 1.00 | | 2.20 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O – Imkoniyatlar | Onlayn ta’lim texnologiyalari | 0.25 | 5 | 1.25 | T – Tahdidlar | Katta raqobat | 0.30 | 3 | 0.90 |
| | Ta’limga talab oshishi | 0.25 | 4 | 1.00 | | Qonunchilikdagi o‘zgarishlar | 0.30 | 2 | 0.60 |
| | Davlat qo‘llovi | 0.25 | 3 | 0.75 | | Sifatga ishonchsizlik | 0.20 | 2 | 0.40 |
| | Chet el investitsiyalari | 0.25 | 3 | 0.75 | | Soliq siyosatidagi o‘zgaruvchanlik | 0.20 | 3 | 0.60 |
| Jami O | | 1.00 | | 3.75 | Jami T | | 1.00 | | 2.50 |

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyatida xususiy ta’lim muassasalari aholining muqobil ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu maktablar nafaqat ta’lim sifati, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xorijiy tillar, STEM yo‘nalishlari va iqtidorli bolalar bilan ishlash kabi sohalarda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishlari bilan ajralib turadi. (3-jadval)

Xususiy sektorning rivojlanishi davlat ta’lim tizimi bilan sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirib, umumiy ta’lim sifati oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, ushbu maktablar faoliyati nafaqat iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan, balki ta’lim siyosati va strategiyasini shakllantirishda ham muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Yuqorida keltirilgan SWOT tahlil natijalari asosida xususiy ta’lim muassasalarining boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar chuqurroq nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Bu tahlil strategik rejalashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, imkoniyatlar va tahdidlarni baholash orqali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kuchli tomonlar blokida — raqobatbardosh ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish va bozor talablariga moslashuvchanlik eng yuqori bahoga ega omillar sifatida qayd etilgan. Bu holat xususiy ta’lim muassasalarining moslashuvchan boshqaruv tizimi, foydalanuvchi ehtiyojlariga tezkor javob bera olish qobiliyati bilan bog‘liq. Innovatsion yondashuvlar va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari ham muassasa salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq ularga berilgan ballarning nisbatan pastligi bu imkoniyatlarning amaliyotda to‘liq joriy etilmayotganidan dalolat beradi. Bu esa resurslar, texnologiyalar va xalqaro aloqalarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Zaif tomonlar qatorida eng dolzarb muammolar — moliyaviy cheklovlar va malakali kadrlar yetishmovchiligi sifatida ajralib turadi. Bu holatlar xususiy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Davlat tomonidan moliyaviy yordamning cheklanganligi, xususan subsidiyalar va soliq imtiyozlarining yetarli emasligi, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga monelik qilmoqda. Shuningdek, byurokratik to‘siqlar, litsenziyalashdagi murakkabliklar va xususiy maktab brendlarining to‘liq tan olinmasligi ularning bozorga kirishi va raqobatbardosh bo‘lishini cheklaydi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ilg‘or menejment yondashuvlarini, xususan korporativ boshqaruv, sifat menejmenti tizimlari va raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish zarur.

Imkoniyatlar blokida eng yuqori baho onlayn ta’lim formatlari va texnologik rivojlanish omiliga berilgan. Bu omil ayniqsa pandemiyadan keyingi davrda sezilarli ahamiyat kasb etib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi xususiy sektor uchun keng imkoniyatlar ochgan. Shuningdek, bozordagi ta’limga bo‘lgan talabning ortishi, yangi kurslar va ixtisoslashgan yo‘nalishlar ochish imkonini bermoqda. Davlat tomonidan xususiy ta’limni rag‘batlantirish siyosati va xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi istiqbolli imkoniyatlar sirasiga kiradi. Biroq bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun institutsional islohotlar, tizimli yondashuv va investitsion muhitni yaxshilash zarur.

Tahdidlar blokida esa davlat va yirik universitetlar bilan raqobat, qonunchilikdagi tez-tez o‘zgarishlar, jamoatchilik ishonchining pastligi kabi omillar salbiy ta’sir kuchiga ega. Xususiy muassasalar ta’lim sifati va barqarorligiga nisbatan ijtimoiy ishonchni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Bundan tashqari, soliq siyosatining beqarorligi, regulyator organlar talablarining tez-tez o‘zgarishi uzoq muddatli strategik rejalashtirishni murakkablashtiradi, bu esa tizimda barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xususiy ta’lim muassasalari o‘z salohiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, mavjud zaifliklar va tashqi tahdidlar ularning samarali boshqaruvini murakkablashtirmoqda. Kuchli tomonlar va imkoniyatlarning yuqori baholanishi — bu muassasalarning strategik ustunlikka ega ekanligini bildiradi. Biroq zaif tomonlar va tahdidlarning yuqori salmog‘i bu ustunliklardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan, xususiy ta’lim muassasalariga quyidagi strategik yo‘nalishlarni tavsiya etish mumkin:

Boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish;

Innovatsion ta’lim metodlarini keng joriy etish;

Davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish;

Ta'lim sifati va ishonch muhitini mustahkamlash.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim — bu insonning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayoni bo'lib, u tarbiya va o'qitish orqali amalga oshadi. U insonning aqliy, axloqiy va kasbiy kamolotini ta'minlovchi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri sanaladi. Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Konfutsiy, Aristotel, Lev Tolstoy, Jon Dyuay kabi mutafakkirlar ta'limni insoniy barkamollikka eltuvchi vosita sifatida ta'riflaganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, bilim — bu faqat faktlar majmui emas, balki tafakkurni, ongni va shaxsiy rivojlanishni shakllantiruvchi asosiy omildir. Shu bilan birga, "tizim" tushunchasi ham ijtimoiy va texnik muhitda muhim o'rin tutadi. Tizim — bu o'zaro bog'langan elementlarning maqsadli va tartibli to'plami hisoblanadi. Masalan, axborot tizimlari texnologik komponentlar va foydalanuvchilarni bitta maqsad — ma'lumotni qayta ishlash va uzatish atrofida birlashtiradi. Shunga o'xshab, har qanday samarali ta'lim jarayoni ham o'ziga xos ichki va tashqi tizimli yondashuvni talab qiladi. Demak, zamonaviy ta'limni puxta tashkil etish nazariy va amaliy jihatdan tizimli yondashuvga asoslanmog'i lozim.

Namangan viloyatidagi umumta'lim muassasalari bo'yicha joylashtirish va mavjud resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari hududlararo sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, aholi zichligi yuqori bo'lgan Yangi Namangan, Davlatobod tumanlari hamda Namangan shahri hududlarida sinf o'rinlarining yetishmasligi yaqqol sezilmoqda — bu hududlarda zichlik koeffitsienti 1,5–1,6 atrofida. Mazkur holat o'quvchilarning ta'lim sifati pasayishiga, o'qituvchilarga tushadigan yuklamaning ortishiga va sinfda individual yondashuv imkoniyatining kamayishiga olib keladi. Aksincha, Pop tumanida o'quvchilar soni mavjud o'rinlarga nisbatan kamroq bo'lib, bu yerda koeffitsient 0,9 ni tashkil qiladi. Bu esa hududdagi infratuzilma va resurslarning to'liq band etilmayotganini bildiradi. Ushbu holat demografik siljishlar, migratsiya jarayonlari va iqtisodiy faollik darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, ko'rsatkichlar 1,2 atrofida bo'lgan Yangiqo'rg'on, Chortoq, Chust va Mingbuloq tumanlarida yuklama nisbatan muvozanatli ekanligi kuzatilmoqda. Bu tumanlarda ta'lim muassasalari resurslar va sig'im bo'yicha nisbatan barqaror ishlayotganiga dalildir. Yuqori zichlikka ega hududlarda yangi maktablar qurish, mavjud maktablarni kengaytirish, o'qituvchilar tarkibini mustahkamlash va resurslarni hududlar bo'yicha qayta taqsimlash dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu choralar orqali ta'limga teng imkoniyatlar yaratish, sinf sig'imini me'yorlashtirish hamda o'quvchilar uchun qulay o'quv muhitini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Namangan viloyatidagi umumta'lim maktablarida sinf kesimida o'quvchilar sonining tahlili shuni ko'rsatadiki, 1–4-sinflarda ta'limga qamrov darajasi yuqori va barqaror bo'lib, o'quvchilar soni nisbatan bir tekis taqsimlangan. Ayniqsa, 2–3-sinflarda o'quvchilar sonining maksimal darajada bo'lishi demografik o'sish yoki ta'limga keng qamrovli kirish imkoniyati bilan izohlanishi mumkin. Biroq 4-sinfdan boshlab o'quvchilar soni izchil kamayadi, bu esa yuqori sinflarda ta'limni davom ettiruvchi o'quvchilar ulushi pasayib borayotganini anglatadi. Bu tendensiya o'quvchilarning maktabdan chiqib ketish sabablari, xususan mehnat bozoriga erta kirish, boshqa hududga ko'chish, iqtisodiy yoki ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Aaker, Strategic Market Management, Wiley, 2008.
2. Keller K., Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity, Prentice Hall, 2003.
3. Xmelkova N.V., Teoretiko-metodologicheskiye osnovy ob'yedineniya brendov v strategicheskikh marketingovykh alyansakh, Yekaterinburg, 2013.
4. Mitrofanova T.Yu., Razrabotka konkurentnoy strategii vuza na rynke obrazovatel'nykh uslug, Sankt-Peterburg, 2011.
5. Vanyushkina V.V., Brend vysshego obrazovatel'nogo uchrezhdeniya: osobennosti formirovaniya i prodvizheniya, Rostov-na-Donu, 2011. / Simonov V.B., Upravlenie razvitiem marketing-orientirovannoy infrastruktury innovatsionnoy deyatel'nosti v vuze, Moskva, 2008.
6. Adizov B.R., "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari." Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 2022.
7. Axunova G., O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari: Monografiya. – Toshkent, 2005. – 244 b.
8. G'oziyev K., "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini boshqarish va tashkil etishning huquqiy jihatlari." Jamiyat va innovatsiyalar, 3.6/S, 2022.
9. Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O., Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash, Iqtisodiyot va ta'lim, 2010, №2.
10. Xashimova D., "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari" Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №1, 2020.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 6**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**
**tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100